



YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

2026-yil yanvar-mart


- I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi
- V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Yalpi hududiy mahsulot dinamikasi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **7 756,4** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda **8,8 %** ga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi **1,7 %** ga yetdi.

YAHM hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-mart



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan **113,5** foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – **124,8** % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **110,8** % qayd etildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indekslari



YAHM	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
113,5	110,8	124,8	103,6	107,9


II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'atlari, % da
	2025-yil yanvar-mart	2026-yil yanvar-mart	
YAHM - jami	6 280,0	7 756,4	108,8
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 070,4	7 512,5	108,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	959,4	1 145,4	107,8
sanoat	2 100,0	2 852,4	108,9
qurilish	416,0	493,7	114,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	834,0	988,9	112,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	269,5	342,3	116,6
boshqa xizmat tarmoqlari	1 491,5	1 689,8	103,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	209,6	243,9	112,6

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **107,8 %**, sanoatda – **108,9 %**, qurilishda – **114,6 %**, xizmatlar sohasida – **107,9 %** ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **112,7 %**, tashish va saqlash, axborot va aloqa **116,6 %**, boshqa xizmat tarmoqlarida **103,6 %** dan iborat bo'ldi.

YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, yanvar-mart
(%,da)




2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAQMning **96,9 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **3,1 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAQMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **15,2 %** ni, sanoat tarmog'i **38,0 %** ni, qurilish **6,6 %** ni va xizmatlar sohasi **40,2 %** ni tashkil qildi.

III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, yanvar-mart

Quyida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **8 182,8** ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **7,1 %** ga yuqoridir.




IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHMdagi ulushi

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan, %da)

2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik **4 807,9** mlrd. so'mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-mart oylarida – **4 041,2** mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi **64,0 %** ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – **66,6 %**) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.





V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim elementlari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soni bo'yicha demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Havolalar

[Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Yalpi hududiy mahsulot](#)